


# O'zbekiston Respublikaga kelgan va ketgan shaxslar soni

2017 yil yanvar-dekabr

## RAQAMLAR:


2017 yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 2847,9 ming nafarni tashkil etdi

2017 yilda ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 6823,9 ming nafarni tashkil etdi.




2017 yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 2847,9 ming nafarni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,0%ga ko'p. O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 1281,5 ming nafari (45,0%) erkaklar, 1566,4 ming nafari esa (55,0%) ayollarni tashkil etadi.


2017 yil yakuni bo'yicha ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 6823,9 ming nafarni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,5%ga ko'p. Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 4268,5 ming nafari (62,6%) erkaklar, 2555,4 ming nafari esa (37,4 %) ayollarni tashkil etadi.



O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




O'zbekiston Respublikasidan ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



16-25 yosh      26-55 yosh      56 yosh va undan katta

## O'zbekiston Respublikaga kelgan va ketgan shaxslar soni


### O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, foizda



O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 6,9 ming nafari (42,4% erkaklar, 57,6% ayollar) o'qish maqsadida, 18,5 ming nafari (88,3% erkaklar, 11,7% ayollar) tijorat maqsadida, 28,7 ming nafari (38,7% erkaklar, 61,3% ayollar) davolanish maqsadida, 67,6 ming nafari (85,4% erkaklar, 14,6% ayollar) ishlash maqsadida, 90,2 ming nafari (33,5% erkaklar, 66,5% ayollar) doimiy yashash maqsadida, 159,9 ming nafari (86,2% erkaklar, 13,8% ayollar) xizmat yuzasidan, 203,7 ming nafari (60,5% erkaklar, 39,5% ayollar) sayyohlik maqsadida, 2272,3 ming nafari (39,7% erkaklar, 60,3% ayollar) qarindoshlarni borib ko'rish maqsadida kelgan.


Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 10,9 ming nafari (39,0% erkaklar, 61,0% ayollar) doimiy yashash maqsadida, 29,7 ming nafari (70,9% erkaklar, 29,1% ayollar) tijorat maqsadida, 32,0 ming nafari (46,7% erkaklar, 53,3% ayollar) davolanish maqsadida, 39,2 ming nafari (68,6% erkaklar, 31,4% ayollar) o'qish maqsadida, 362,0 ming nafari (51,1% erkaklar, 48,9% ayollar) sayyohlik maqsadida, 361,8 ming nafari (79,8% erkaklar, 20,2% ayollar) xizmat yuzasidan, 1630,5 ming nafari (77,8% erkaklar, 22,2% ayollar) ishlash maqsadida, 4358,9 ming nafari (56,4% erkaklar, 43,6% ayollar) qarindoshlarni borib ko'rish maqsadida ketgan.

### Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, foizda



## O'zbekiston Respublikaga kelgan va ketgan shaxslar soni

### 2017 yil davomida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni, ming kishi



2017 yil davomida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki 79,8% (2272,3 ming nafar) qarindoshlarni borib ko'rish uchun, 7,2% (203,7 ming nafar) sayyohlik maqsadida, 5,6% (159,9 ming nafar) xizmat yuzasidan, 2,4% (67,6 ming nafar) ishlash maqsadida, 5,1% (144,3 ming nafari) boshqa maqsadlarda tashrif buyurgan.

2017 yil davomida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki, ularning 63,9% (4358,9 ming nafar) qarindoshlarni borib ko'rish uchun, 23,9% (1630,5 ming nafar) ishlash maqsadida, 5,3% (361,8 ming nafar) xizmat yuzasidan, 5,3% (361,0 ming nafar) sayyohlik maqsadida, 1,6% (111,8 ming nafar) boshqa maqsadlarda ketgan.

### 2017 yil davomida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, ming kishi

